GLOBAL O‘ZGARISHLAR SHAROITIDA BARQAROR IQTISODIY O’SISHNI TA’MINLASH

Muminova E.A.
Fazliddinova N.E.

Annotatsiya. *Ushbu tezisda zamonaviy global o’zgarishlar, shuningdek, jahon iqtisodiyotidagi beqarorlik sharoitida O’zbekiston Respublikasida barqaror iqtisodiy o’sishni ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlar "O‘zbekiston — 2030" strategiyasi doirasida tahlil qilinadi.*

Kalit so’zlar: *O‘zbekiston — 2030 strategiyasi, global o’zgarishlar, iqtisodiy o’sish, yashil iqtisodiyot, raqamlashtirish, inson kapitali, makroiqtisodiy barqarorlik, innovatsiyalar.*

Kirish. XXI asrda yuz berayotgan jiddiy iqlim o’zgarishlari va jahon iqtisodiyotida sodir bo’layotgan o’zgarishlar sharoitida mamlakatda barqaror iqtisodiy o’sishni ta’minlash har bir davlatdan chuqur o’ylab ishlab chiqilgan va natijasi kutilgan samarani beradigan islohotlarni talab qilmoqda. O‘zbekistonda ushbu vazifalarni tizimli amalga oshirishning bosh mezoni sifatida **"O‘zbekiston — 2030" strategiyasi** xizmat qilmoqda. Global o‘zgarishlar va tashqi iqtisodiy ta’sirlar sharoitida barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash **“**O‘zbekiston – 2030**”** strategiyasining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir.

Asosiy qism. So‘nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tizimli islohotlar O’zbekiston milliy iqtisodiyotini barqaror o‘sish darajasiga olib chiqdi. Iqtisodiy tariximizda birinchi marta yalpi ichki mahsulot hajmi 145 milliard dollarga, xorijiy investitsiyalar 43,1 milliard dollarga, eksport hajmi 33,5 milliard dollarga, oltin-valyuta zaxiralari 60 milliard dollarga yetdi. Ishsizlik darajasi 4,9 foizgacha, kambag‘allik darajasi esa 5,8 foizgacha qisqardi. 2025-yil yakuniga ko‘ra, mamlakatda o‘rtacha oylik nominal ish haqi 6,4 mln so‘mni tashkil etdi Bu ko‘rsatkichlar mamlakat iqtisodiy siyosatining izchilligi va olib borilayotgan islohotlarning samaradorligini yaqqol namoyon etmoqda. Ammo, so’ngi yillarda jahon maydonida sodir bo’layotgan keskin global o’zgarishlar va xalqaro bozorlardagi beqarorlik O’zbekistonda ham yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda. Yangilanayotgan strategiyada esa iqtisodiy yo’nalish doirasida iqtisodiyotning tarkibiy o’zgarishi, iqtisodiy o’sish va aholi turmush faravonligini

oshirish ustuvor vazifa qilib belgilanmoqda. Shu bilan birga strategiyaning bosh maqsadi — iqtisodiyot hajmini 2 barobar oshirish va aholi jon boshiga YaIMni 4 ming dollarga yetkazish orqali mamlakatni "daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar" qatoriga olib chiqishdir. Shuningdek, makroiqtisodiy ko’rsatkichlar barqarorligini ta’minlash asosiy strategik vazifadir. 2030-yilga qadar mamlakat yalpi ichki mahsulot hajmini 240 milliard dollarga yetkazish, inflyatsiya darajasini 5-6 foiz atrofida barqarorlashtirish rejalashtirilgan. Bu choralar iqtisodiyotning tashqi ta’sirlarga chidamliligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, murakkab va tez o’zgaruvchi global muammolarda barqaror iqtisodiy o’sishni ta’minlashda iqtisodiy hajm, energetika tizimi, eksport salohiyati va inflyatsiya darajasi kabi ko’rsatkichlar muhim ahamiyatga egadir.

Barqaror o‘sish yo‘nalishi	Strategiya- 2030 maqsadli ko‘rsatkichi	Global chaqiriqlarga javobi
Iqtisodiy hajm	YaIMni 2 barobar oshirish (160 mlrd dollarga yetkazish)	Kambag‘allikni qisqartirish va barqaror ichki bozorni yaratish
Energetika tizimi	Qayta tiklanuvchi energiya hajmini 40% ga yetkazish	Iqlim o‘zgarishi ta’sirini kamaytirish va resurslarni tejash
Eksport salohiyati	Eksport hajmini 45 milliard dollarga yetkazish	Tashqi iqtisodiy bog‘liqlikni kamaytirish
Inflyatsiya darajasi	Inflyatsiya darajasini 5% lik target ko‘rsatkichiga tushirish	Makroiqtisodiy barqarorlik va investorlar ishonchi

Ushbu chora-tadbirlarning tizimli amalga oshirilishi global tahdidlarni yangi iqtisodiy imkoniyatlarga aylantirish va uzoq muddatli barqaror iqtisodiyotni ta’minlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lex.uz. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz.
2. O‘zbekiston Milliy axborot agentligi (O‘zA). – URL: https://uza.uz